

AHOLI YASHASH PUNKTLARIDA JANGOVAR HARAKATLAR OLIB BORISHNING MURAKKABLIJI VA ULARDAN OLINGAN XULOSALAR

Arziyev G‘ayratjon Ismailjonovich

Chirchiq olyi tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti

*“Qurollanish va otish” kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari-otish tayyorgarligi
(umumqo‘shin va maxsus bo‘linmalar) sikl boshlig‘i podpolkovnik*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kungacha sodir bo‘lgan va xozirda yuz berayotgan jangovar harakatlar taxlididan kelib chiqib, ular natijalaridan olingan asosiy operativ, taktik va texnik xullosalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jang, operativ, taktika, texnika, ommaviy tartibsizlik, qurul-aslaha.

Аннотация. На данной статье опубликовано основное оперативные, тактические и технические выводы из анализа ведение боевых действий происходящей в мире и в регионе.

Ключевые слова: Бой, оперативное, тактика, техника, массовые беспорядки, вооружение.

Bugungi kunda ko‘plab zamonaviy davlatlarda urbanizatsiya jarayonini jadal sur’atda o‘sib borishi harbiy bo‘linmalarni aholi yashash punktlarida jangovar harakatlar olib borish uchun tayyorlashga alohida ahamiyat berishga majbur etmoqda. Shahar sharoitlaridagi jangovar harakatlar odatiy jangovar harakatlardan katta farq qiladi. Bunday jangovar harakatlar olib borishda joyni ko‘zdan kechirish va o‘q uzish imkoniyatlari cheklanganligi hamda jangovar texnikalarning manyovr amalga oshirishi murakkabligi sababli piyoda qo‘shinlarga bo‘lgan talab ortadi. Harbiy xizmatchilarga nafaqat binolardagi, balki yuqori qavatlardagi, yerto‘la va tomlardagi dushmannitor-mor keltirishga to‘g‘ri keladi, shuning uchun, ular shahar sharoitidagi janglarda bir qator kutilmagan qiyinchiliklarga duch keladi.

Ushbu jangovar harakatlarga tayyorgarlik davomida dushmanning muhandislik jihatdan tayyorgarlik darajasiga, aholi yashash punktlarini ishg‘ol qilish davomida jangovar texnika va artilleriya bo‘linmalarining qo‘llab-quvatlash imkoniyatlariga, bo‘linmalarining hamkorlikdagi harakatlari va ular orasida doimiy aloqani ta’minlab turishiga, shuningdek, shaxsiy tarkibning maxsus tayyorgarliklariga asosiy e’tibor qaratish lozim.

Shaharlarda turli binolar, va boshqa obyektlarning zich joylashganligi hujum qilayotgan bo‘linmalarining harakatchanligiga ta’sir etib, manyovr qilishni va radioaloqa vositalarinng samarali ishlashini pasaytiradi, shuningdek, razvedka olib borish hamda jang davomida bo‘linmalarni boshqarishni va o‘q uzishni murakkablashtiradi. Horijiy mamlakatlar armiyalarining shahar sharoitlaridan olib

borgan harbiy harakatlaridan quyidagi operativ, taktik va texnik xullosalar qilish mumkin:

Operativ xulosalar:

shahar sharoitlarida jang olib borish uchun ishlab chiqilgan shahar sharoitidagi harbiy operatsiyalar doktrinasining o‘zi yetarli emas;

shahar sharoitidagi turli taktik harakatlarni domiy ravishda turli vaziyatlarni qo‘llagan holda mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘linmalar jangovar samarasini kuchaytiradi va yo‘qotishlar sonini kamaytiradi;

shaharda olib boriladigan janglarda harbiy xizmatchilar uchun qoida va majburiyatlarni soddalashtirish unda olib boriladigan janglarning mohiyatini oshiradi;

ayrim xollarda jang olib borayotgan kuchlar orasida yo‘qotishlarni hisobga olib soddalashtirilgan qoidalarni ham bajarish murakkablashadi;

shahar sharoitidagi shiddatli harakatlar natijasida shaxsiy tarkibning tezlik bilan charchoq va toliqish xususiyatlari paydo bo‘ladi;

yuqori qo‘mondonlikning o‘t ochib qo‘llab quvvatlashi jangni tashkillashtirish va olib borish davormida yo‘l qo‘yilgan ayrim taktik kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi;

shahardagi jang shaxsiy tarkib uchun ekstremal, shiddatli bo‘lib, hujum qilayotgan harbiy xizmatchilarning ko‘plab safdan chiqishiga va moddiy vositalarning yo‘qotilishiga olib keladi;

ruhiy harakatlar shahar sharoitida olib boriladigan harbiy operatsiyalarning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi;

shahar sharoitlaridagi jangovar harakatlar davomida moddiy-texnik ta’mnot tizimi moddiy vositalarga bo‘lgan noodatiy talablarning ortishi sababli ulkan murakkabliklarga duch keladi va ayrim ta’mnot turlarining yuqori sarf-harajati kuzatiladi;

odatiy va shahar sharoitida olib boriladigan jangovar harakatlarning kengligi va chuqurligi bir-biridan keskin farq qiladi;

shahar sharoitidagi olib boriladigan janglarda “vertikal” harakatlar asosan binolarning yuqori qavatlarida, tomlarda va yerto‘lalarda olib boriladi;

shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borish uchun tayyorlangan maxsus bo‘linmalar ushbu vaziyatda o‘ta foydali bo‘lib, barcha turdagи komandirlar (boshliq) ularning maxsus ko‘nikmalarni vaziyatning turli sharoitlarida samarali qo‘llashni bilishlari lozim;

shahardagi tinch aholining yirik miqyosidagi harakatlari harbiy harakatlar olib borishga to‘sinqlik qiladi;

jangovar harakatlar rayonida yirik harakatlar olib borayotgan tinch aholi vakillaridan o‘ta extiyot bo‘lish talab etiladi, chunki ular har qanday vaqtida boshqarib bo‘lmaydigan yirik “to‘lqinga” aylanishlari mumkin;

shahar sharoitlaridagi operatsiyalarda aviatsiya kuchlarini piyoda qo'shnlarni qo'llab-quvatlash uchun qo'llash mumkin, bunda aniq razvedka ma'lumotlari va doimiy kuzatuvlar o'ta muhim hisoblanadi;

harbiy qismlarning odatiy tashkiliy tuzilishi shahar sharoitlarda jangovar harakatlar olib borish talablariga javob bermaydi;

fugorolar va psixologik operatsiya ishlariga yetarli baho bermaslik yoki ularni baholashda xatolarga yo'l qo'yish qo'mondonliklarga kulfat keltiradi;

taktik jixatdan kutilmaganda zarba berishga erishish uchun desantlashtirish operatsiyalari muhim rol o'ynaydi.

Taktik xulosalar:

har qanday dushmanga qarshi olib boriladigan janglarda aloqa kanallarining mustahkam himoyalanganligi ta'minlashni talab etadi;

shahar sharoitida olib boriladigan tungi janglar o'ta murakkab hisoblanib, u qo'shimcha tayyorgarlikni talab etadi;

shaharda jang olib borayotgan harbiy qismlar ularning shtatida ko'zda tutilmagan maxsus jixozlarga extiyoj sezadi;

piyoda qo'shnlarning qo'llab quvvatlashi bo'lмаган vaziyatlarda tanklar va boshqa zirhli texnikalar mustaqil harakatlanish imkoniyatidan maxrum bo'ladi;

maxsus tayyorlangan mernan yoki mernanlar guruhini qo'llash eng katta samara beradi;

agar patrullik qilish xavfsizlik kuchlarining asosiy strategiyasi bo'lsa, u odatiy jangovar patrullikdan farqlanadi va ular orasidagi hamkorlik to'liq yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim;

shahar sharoitlaridagi janglarda o'z va dushman qo'shnlari orasidagi farqlanishning murakkabligi tufayli, aksariyat xollarda o'z qo'shnlariga zarba berish jiddiy muammolardan biri hisoblanib kelmoqda;

shaharning assosiy fuqarolik obyektlari (shifoxonalar, machitlar, cherkovlar, banklar, elchixonalar va h.k.) odatda yirik yo'llar kesishmalari kabi taktik jihatdan qulay bo'lgan nuqtalarda joylashgan va o'ta mustaxkam qurilish materiallaridan barpo etilgan. Shuning uchun, bunday qurilishlar shaharda mudofaani tashkillashtirganlar uchun o'ta qulay hisoblanadi;

to'g'ridan mo'lga olib otish uchun mo'ljalangan artilleriya va yerdagi hamda havodagi nishonlarga otish uchun tayinlangan zenit-artilleriya vositalari ushbu janglarda katta samarali vositalar sifatida qo'llanib kelinmoqda;

serjantlar darajasida kichik bo'linmalarni muvofaqqiyatli boshqarish shahar sharoitidagi operatsiyalarda taktik muvofaqqiyatga erishishga olib keladi;

talofat yetkazilgan jangovar mashinalarni shahardagi janglar davomida o'ta murakkab bo'lib, ularni tuzatish va safga qaytarish uchun jangning asosiy bosqichini yakunlanishini kutishga to'g'ri keladi;

shahar sharoitlarida jang olib borish davomida har qanday yo‘l bilan qo‘lgan kiritilgan razvedka ma’lumotlari o‘ta qimmatli hisoblanadi;

dushmanning kichik guruhlari pistirma harakatlarida asosan “zarba-chechinish” tamoyiliga amal qiladi;

shaharning vayronaga aylangan ko‘chalarida g‘ildirakli texnikalardan ko‘ra zanjirli texnikalarning harakatlanishi qulay bo‘lib, ular jangning asosiy bosqichida oldingan harakatlanayotgan piyoda qo‘shinlar harakatini to‘sib qolmaydi;

jangovar vertolyotlar shahar sharoitida dushmanning o‘q otar quroldan uring tushirish mumkinligini hisobga olib, ulardan faqat shaxsiy tarkibga moddiy vositalar, o‘q-dorilar va qurol-aslahalar yetkazib berish uchun foydalanish maqsadga muvofiq;

harbiy xizmatchilarning erkin va tezkorlik bilan harakatlanishi va ularda chidamlilikni saqlab qolish uchun maksimal yuklarining vaznni qisqartirish zarur;

harbiy xizmatchilarga shahar sharoitlaridagi janglarda o‘q-dorilarni tejab ishlatish va qo‘l ostidagi turli narsalardan (beton bo‘lagi, temor, yog‘och va.h.k) dushmanga talofat yetkazish usullarini o‘rgatish maqsadga muvofiq;

zamonaviy yo‘l ko‘rsatuvchi moslamalarning (masalan: GPS) turli ta’sirlarga qarshi o‘ta zaifligini xisobga olib barcha pog‘onadagi komandirlarni joy aniq tushirilgan qog‘oz xaritalar bilan ta’minalash zarur;

artilleriya va aviatsiya zARBALARI vaqtida harbiy xizmatchilarning ko‘rish va eshitish organlarini bombalarning o‘ta kuchli shovqinidan shok xolatiga tushishini oldini olish uchun himoya choralarini ko‘rish lozim.

Texnik xulosalar:

dala sharoitlarida dushmanning taktikasi va mustahkam istexkomlariga muvofaqiyatli qarshi kurashish maqsadida harbiy xizmatchilarning ayrim jangovar anjom-aslahalariga o‘zgartirishlar kiritishni talab etadi.

yaqin janglarda individual shaxsiy qurollar (pistoletlar) katta bo‘lmagan, xal etuvchi ta’sir natijalarini bermaydi;

nisbatan massasi yengil bo‘lgan individual zirh kamzullar (bronejiletlar) shaxsiy tarkibning safdan chiqishini sezilarli darajada pasaytiradi;

tutunlar orqali shaxsiy tarkibni niqoblash ularning yashovchanligini ta’minalaydi, lekin ayrim qiyinchiliklar tug‘diradi (ko‘rish orqali aloqa qilish to‘sinqilik qiladi, jangovar texnikalar xaydovchilarining ko‘rishi cheklaydi va o‘rtacha harakat tezligini pasaytiradi);

minomyotlar mudofaa qilayotgan yoki hujum qilayotgan bo‘linmalar tomonidan yuqori baholanadi, lekin minaning yaqin masofalarda uzoq uchishini hisobga olib, ko‘zlangan yuqori natijani bermasligi mumkin;

shahar sharoitlarida avtomatlardan ko‘ra pulemyotlar samarali qurol hisoblanadi;

zenitniye pulemyotlari yerdagi nishonlarga talofat yetkazish va og‘ir yirik kalibrli pulemyotlar vertolyotlar orqali havodan bo‘lgan zARBALARNI qaytirish hamda RPG-7

rusumdag'i tankka qarshi qo'1 granatomyoti turli yengil va jangovar texnikalarni, yengil turdag'i devor va binolar ichida joylashgan dushmanni yakson qilish uchun samarali qurollar hisoblanadi;

zirhlis mashinalarga odatiy jang turlaridan ko'ra uning old tomoni emas balki, orqa, usti va yon tomonlarga ham qo'shimcha zirhlar o'rnatish maqsadga muvofiq;

masofadan boshqariladigan uchuvchisiz uchish apparatlari bo'linmalarnin razvedka ma'lumotlari bilan uzlucksiz va kunning aniq vaqtida ta'minlashi uchun bo'linmalarga bunday apparatlarni biriktirish yoki shtat bo'yicha kiritish lozim;

dushmanning ko'plab xollarda qo'l bola kimyoviy va portlovchi moddalar qo'llashiga qarshi bo'linmalar tayyorgarlik davomida shaxsiy himoya vositalari ta'minlash hamda qo'l bola portlovchi vositalariga qarshi kurashish yoki uni zararsizlantirish usullariga ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq;

jangovar muhandislik texnikalari hisoblagan buldozerlar shahar janglarida vayronalari tozalash va bo'linmalarga harakat yo'llari ochishda, shuningdek, katta talofat yetkazish hususiyatiga ega o'q-dorilar, shu bilan birga, agar, murakkab meterologik sharoitlar to'sqinlik qilmasa yuqori aniqlikdagi artilleriya va boshqariladigan aviatsiya raketalari dushmanning mustahkam egallagan muhandislik jihatdan puxta tayyorlangan tayanch punktlarini yakson etishda yaxshi samara beradi;

insonni o'ldirish xususiyatiga ega bo'l magan qurollarni ommaviy tartibsizliklar va qo'shnlarning harakatiga bo'lgan aholining to'sqinligini bostirish uchun qo'llash samarali hisoblanadi, lekin ushbu o'q-dorilarning muntazam qo'llash natijasida keyinchalik inson organizmida immunitet xosil qilishi va ta'sir etmasligi mumkin;

oddiy portativ radio aloqa vositalari baland va qalin devorlar bilan o'ralgan shahar hududlaridasamarasiz bo'lishi mumkin.

Xulosa:

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni takidlash lozimki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan urbanizatsiyaning ta'siri o'laroq kelajakdagi qurolli to'qnashuvlar asosan shahar (a.ya.p) olib borilishi, bu esa asosan rivojlangan davlatlar armiyalarining rivojlanayotgan yoki nisbatan past rivojlangan mamlakatlar hududida kichik va o'rta shiddaddagi operatsiyalar o'tkazish ehtimoli bor.

2025 yilga borib yer yuzi aholisining beshdan uch qismi urbanizatsiyalashgan hududlarda istiqomat qilishini taxmin etilmoqda, bu esa ayni vaqtida bir necha rivojlanayotgan mamlakatlarda doimiy yashash joyi, ichimlik suvi va ish joyining tanqisligiga olib keladi va u yerlardagi qashshoqlik, turli kasalliklar taqalishi hamda jinoyatning oshishiga olib keladi. Natijada ijtimoiy va iqtisodiy taqchillik muxitini yaratadi, so'ngra halq orasida g'azab va qahr uyg'onib ommaviy tartibsizliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Nisbatan oddiy bo'lgan jangovar harakatlar rayonida og'ir artilleriya, zirhlis texnika va yuqori texnologiyali boshqaruv tizimiga ega bo'lgan katta va yaxshi

qurollangan harbiy kuchlarga qarshi kam sonli to‘la-to‘kis qurollanmagan bo‘linma bilan kurashish uchun partizanlar urushining assimetrik qoidalarini qo‘llagan holda olib borish mumkin.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. <https://militaryarms.ru>> granatomety (мурожат санаси 16.11.2019)
2. www.mzk1.ru> granatomet-ags-17 (мурожат санаси 23.11.2019)
3. Статья “Опыт уличных боев глазами чеченского боевика, воюющего в Сирии” на сайте <https://warsonline.info>(мурожат санаси 25.11.2019)
4. Статья “Ведение боевых действий в населенном пункте” на сайте www.spec-naz.org(мурожат санаси 26.11.2019)
5. <https://oruzhie.info/204-ags-17> (мурожат санаси 26.11.2019)
6. <https://m.tvzvezda.ru>(мурожат санаси 26.11.2019)